

KUZGI BUG'DOY URUG'LARINING DALA UNUVCHANLIGIGA O'G'IT MEYORLARINING TA'SIRI

G'. G'aybullayev
qishloq xo'jalik fanlari doktori

Sh. Nurkabilov
TDAU Samarqand filiali magistranti

ANNOTATSIYA

Qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshiruvchi tadbirlar majmuida ma'danli va mahalliy o'g'itlar hamda, mikro o'g'itlarni ilmiy asosda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bunday amaliy ishlar bajarilganda, rejalashtirilgan sifatli hosil olinadi va tuproq unumdorligi ham ma'lum miqdorda saqlanib qolinishiga erishiladi. Boshqali don ekinlarini tuplanish, naychalash va boshqalash davrlarida parvarishini o'z vaqtida o'tkazish yuqori va sifatli don hosilini yetishtirishni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: agrar, bug'doy, don, mineral, dehqonchilik.

ABSTRACT

The use of mineral and local fertilizers, as well as trace elements on a scientific basis, is important in a set of measures to increase the productivity of agricultural crops. When this practical work is done, the planned high-quality harvest is obtained and, to a certain extent, the fertility of the soil is preserved. Timely care of grain during harvesting, threshing and threshing provides high-quality grain.

Keywords: agrarian, wheat, grain, mineral, farming

KIRISH

Respublikamiz g'alla yetishtirishda kuzgi intensiv tipdagi bug'doylardan sug'oriladigan yerlarda mo'l va sifatli hosil yetishtirishda bevosita kuchli asoslangan, dala tajribalarida sinovdan o'tgan, o'rganilayotgan nav biologiyasidan kelib chiqqan holda yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy yetish asosiy vazifalardan biridir. O'g'it me'yorlarini optimallashtirish yo'li bilan sug'oriladigan yerlarda kuzgi bug'doydan sifatli va yuqori hosil olishda tashqi muhit omillaridan samarali foydalana oladigan navlarni yaratish, ma'lum birlikdagi maydonda optimal miqdordagi mahsuldor poyalar sonini hosil qilish, hosil bo'lgan agrotsinozni boshqarish singari ishlar amalga oshiriladi.

Azotli o'g'itlar donli ekinlarda oqsil miqdorini oshiradi, shu bilan birga o'suvchanlilik darajasini ham yaxshilashga xizmat qiladi. Agar, azotli o'g'itlar kuzgi bug'doy va boshqa boshqoli don ekinlarini oziqlantirilishida fosforli va kaliyli o'g'itlar bilan qo'llanilish nisbati buzilganda foydasidan ko'ra zarari ko'proq bo'ladi. Shuning uchun ham boshqoli don ekinlari oziqlantirilganda fosforli o'g'itlar azotli o'g'itlarning yarmiga, kaliyli o'g'itlar esa uchdan bir qismiga teng darajada qo'llanilishi qabul qilingan [1; 42-b.; 6].

Shuningdek, boshqa oziqa elementlari bilan balanslanmagan kuchli azotli oziqlanish hosilning kamayishiga, donning ekinboplik, non yopish sifatlarining yomonlashuviga olib keladi [2; 277-280-b.; 5].

Bug'doy yetishtirishda azotning yetishmasligi mahsuldor tuplanishga, boshqodagi don soniga va boshqoning yirikligiga, 1000 dona don massasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, o'sish davrining ikkinchi yarmida azotning yetishmasligi donda oqsilning to'planishini sekinlashtiradi, non yopish sifatini yomonlashtiradi. Shu bilan birgalikda ortiqcha azotli oziqlanish, baquvvat o'sish massasini shakllanishiga va ildiz tizimi bilan yer usti massasi nisbatining buzilishiga, o'sish davrining uzayishiga, yotib qolishga hamda o'simlikning zamburug' kasalliklariga chidamliligining pasayishiga sabab bo'ladi [3; 101-114-b.].

Tuproqdagi me'yoriy namlik esa uning bo'rtishi va urug' endospermdagi zahira moddalarni erishiga olib keladi. Erigan moddalar murtakka o'tadi va yetarli issiqlik, kislorod bo'lgan taqdirda murtak birlamchi, ya'ni murtak ildizini hosil qiladi. Shundan keyingi murtakdagi poyacha o'sib yer bo'yiga chiqadi.

Kuzgi bug'doy azotni tuproqdan ammoniy va nitrat shakllarida o'zlashtiradi. Tuproq eritmasi neytral muhitga ega bo'lganda ammoniy tuzlari, kislotali bo'lganda nitrat tuzlari yaxshi o'zlashtiriladi. Kuzgi bug'doy eng ko'p azotni naychalash va boshqolash fazalarida o'zlashtiradi. O'sish davomida, ayrim davrlarda oziqlanish muhitida azotning yetishmasligini, keyingi davrlarda azotli oziqlantirishni kuchaytirish hisobiga qoplab bo'lmaydi [4; 384-b.].

TADQIQOT METODLARI

Ilmiy-tadqiqot ishlarida kuzatish, hisoblash va tahlillar O'zbekiston Paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutining «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» (O'zPITI, 2007), «Metodi agroximicheskix, agrofizicheskix i mikrobiologicheskix issledovaniy v polivnix xlopkovix rayonax» (SoyuzNIXI, 1963). Tuproq va o'simlik namunalarning tahlili «Metodi agroximicheskix analizov pochv i rasteniy Sredney Azii» (1977), «Metodika polevogo opita» (Dospexov, 1985), «Metodika Gosudarstvennogo sortispitaniya

selskoxozaystvennix kultur» (1964) va Urug‘larning ekinboplik sifatleri Davlat urug‘chilik inspeksiyasi tomonidan belgilangan GOST 12036-66-GOST 12047-66 (M.1973, T.1997), kabi uslubiy qo‘llanmalari asosida tuzildi.

OLINGAN NATIJALAR

2021-2022 yillarda o‘tkazilgan tajribalarimizning natijalari bo‘yicha kuzgi bug‘doyning Jasmina va Yaksart navlariga Samarqand viloyatining o‘tloqi-bo‘z tuproqlari sharoitida har yili har xil o‘g‘it me‘yorlarida ekilganda dala unuvchanligi har xil bo‘lishi kuzatildi (1-jadval).

1-jadval

O‘g‘it me‘yorlarining Jasmina va Yaksart navi urug‘larining dala unuvchanligiga ta’siri.
(2021-2022y)

№	O‘g‘itlar m‘eyori, kg/ga	Unib chiqqan o‘simliklar soni, dona / m ²	Urug‘larning dala unuvchanligi, %
Jasmina			
1	Nazorat	419	83,8
2	NPK.180:90:60	421	84,2
3	NPK.180:90:60+Nutri Power	426	85,2
4	NPK.180:90:60+Micromix	424	84,8
5	NPK.180:90:60+Rootwinner	423	84,6
6	NPK.180:90:60+Seaweed	427	85,4
7	NPK.180:90:60+NPK.20:20:20	431	86,2
Yaksart			
1	Nazorat	417	83,4
2	NPK.180:90:60	420	84
3	NPK.180:90:60+Nutri Power	422	84,4
4	NPK.180:90:60+Micromix	424	84,8
5	NPK.180:90:60+Rootwinner	425	85
6	NPK.180:90:60+Seaweed	426	85,2
7	NPK.180:90:60+NPK.20:20:20	429	85,5

Kuzgi bug‘doy urug‘larining dala unuvchanligi harorat, tuproqdagi namlik, urug‘larning ekinboplik sifatlariga bog‘liq xolda o‘zgardi. Dala unuvchanligi Jasmina navida bu ko‘rsatkich 1 m² da nazorat (o‘g‘itsiz) variantda 419 dona maysalar hosil bo‘ldi va bu 83,8 % ni tashkil etdi. O‘g‘it me‘yori oshirilganda dala unuvchanligiga kata ta’sir sezilmadi ya’ni NPK.180:90:60 qo‘llanilgan variantda 1 m² da 421 donagacha maysalar hosil bo‘ldi va 84,2 % ni tashkil etdi. Eng yaxshi ko‘rsatkich NPK.180:90:60+NPK.20:20:20

variantda 431 dona maysalar hosil bo'ldi va bu 86,2 % ni tashkil etdi. Yaksart navida bu ko'rsatkichlar muvofiq holda quyidagicha bo'ldi, 1 m² da nazorat (o'g'itsiz) variantda 417 dona maysalar hosil bo'ldi va bu 83,4 % ni tashkil etdi. O'g'it me'yor oshirilganda dala unuvchanligiga kata ta'sir sezilmadi ya'ni NPK.180:90:60 qo'llanilgan variantda 1 m² da 420 donagacha maysalar hosil bo'ldi va 84 % ni tashkil etdi. Yaksart navida ham eng yaxshi ko'rsatkich NPK.180:90:60+NPK.20:20:20 variantda 429 dona maysalar hosil bo'ldi va bu 85,5 % ni tashkil etdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Zarafshon vodiysi sharoitida sug'oriladigan yerlarda kuzgi bug'doyning intensiv tipidagi Jasmina navi uchun yuqori hosil va sifatli urug' olishda, o'g'it me'yor NPK.180:90:60+NPK.20:20:20 kg/ga qo'llanilganda, Yaksart navida esa o'g'it me'yor NPK.180:90:60+NPK.20:20:20 qo'llanilganda ijobiy samara berishi bilan bir qatorda, g'allachilikda yuqori iqtisodiy rentabellikga erishishni ta'minlaydi.

REFERENCES

1. Irnazarova N. Kuzgi bug'doyni azot bilan oziqlantirish // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -Toshkent, 2016. -№3. -B. 42.
2. Alam M.S., Sultana M.S., Hossain M.B., Salahin M., Roy U.K., Effect of sowing depth on the yield of spring wheat // J. Env. Sci. Nat. Resour., 2014, 7(1). -r. 277–280.
3. Thorup-Kristensen K., Cortasa M.S., Loges R. Winter wheat roots grow twice as deep as spring wheat roots, is this important for N uptake and N leaching losses? // Plant Soil, 2009, 322(1-2). -p. 101-114.
4. Oripov R., Xalilov N. O'simlikshunoslik. -Toshkent, 2007. -384 b.
5. Bobokulov, Z., & Botirov, A. Teaching agricultural sciences: essence and teaching technology. Jilin Daxue Xuebao (Gongxueban)/Journal of Jilin University (Engineering and Technology Edition), 42(03), 12-17.
6. Alisher Botirov, Akbarxon Murtazayev, Baxodir Ochilov, & Gulrabo Rustamova (2022). UZUM YETISHTIRISHNING HUDUDLAR KESIMIDAGI TAHLILI. Academic research in educational sciences, 3 (Speical Issue 1), 293-297.